
NAVRO'Z BAYRAMI MUNOSABATI BILAN EHTIYOJMAND OILALAR HOLIDAN XABAR OLINDI

Ayni kunlarda yurtimizda yasharish va yangilanish, ezgulik va sahovat bayrami bo'lgan Navro'z shukuhi kezib yuribdi.

Bayram kunlari muhtojlar holidan xabar olish, ularning og'irini yengil qilish va dardiga malham bo'lish xalqimizga xos eng ezgu fazilatlardan biridir.

Bugun 2-sektor rahbari, tuman prokurori Shuxratjon Musayev bayram munosabati bilan sektor hududidagi ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, oilasida nogironi bo'lgan oilalar holidan xabar olib, ularga bayram sovg'asi sifatida zaruriy oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatdi.

2023-03-15 19:21:06